

# О'zbekiston janubiy viloyatlarida sanoat tarmoqlarining rivojlanishi: tarixiy tahlil va oqibatlar (XX - asrning 30-40 y.)

B.Sh.Mamatqulov, PhD,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

**Annotatsiya.** O'zbekiston janubiy viloyatlarida oziq-ovqat sanoat tarmoqlarining yuzaga kelishi, rivojlanishi va mazkur jarayondagi muammoli holatlar ilmiy manbalar asosida tarixiy tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Sanoat, oziq-ovqat sanoati, zavod, un sanoati, vino sanoati, yog' sanoati, yengil sanoat, sabzavot konserva sanoati, kadrlar siyosati .

**Аннотация.** На основе научных источников основан исторический анализ возникновения и развития пищевой промышленности в южных регионах Узбекистана и проблемных ситуаций в этом процессе.

**Ключевые слова:** Промышленность, пищевая промышленность, заводы, мукомольная промышленность, винодельческая промышленность, нефтяная промышленность, легкая промышленность, овощеконсервная промышленность, кадровая политика.

**Abstract.** Historical analysis of the emergence and development of food industries in the southern regions of Uzbekistan and problematic situations in this process is based on scientific sources.

**Key words:** Industry, food industry, factory, flour industry, wine industry, oil industry, light industry, vegetable canning industry, personnel policy.

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar tufayli mamlakat sanoat ishlab chiqarish tizimida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilib, zamonaviy sanoat taraqqiyoti uchun keng yo'l ochildi. Iqtisodiy hayotni demokratlashtirish, soha siyosiy tizimida tub o'zgarishlar yasash, boshqarishda yangi shaklni tashkil etish va sanoat korxonalariga egalik qilishning turli shakllarini tarkib toptirish, soha kadrlarini tayyorlash borasida qator muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Sanoat sohasidagi siyosatni samarali amalga oshirish, sanoatni innovatsion asosda tashkil etish, tashqi bozorlarda yuqori talabga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim" [1, 134].

Hozirgi kunda qo'yilayotgan murakkab vazifalarning ijobiy hal etilishi ko'p jihatdan uning tarixiga ham bog'liq hisoblanadi. Shuning uchun soha tarixini chuqur o'r ganib, har tomonlama chuqur tahlil qilib, umumlashgan xulosalar yordamida

ertangi kun istiqbollarini belgilash O‘zbekiston tarixi fanining dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Jumladan, sanoat sohasining bir qancha tarmoqlarining yuzaga kelishi, xususan, oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi tarixi eng murakkab va shu bilan bir qatorda qiziqarli mavzulardan biri sifatida e’tirof etiladi. Bu davrda sovet davlati sanoat sohasida ham “sotsialistik qurilish” g‘oyasini ilgari surib, tizim faoliyatini yo‘lga qo‘yishda jiddiy o‘zgarishlar qilindi. Bu davrda yaratilgan ilmiy maqolalar, adabiyotlar va dissertatsiya ishlarida asosiy e’tibor sanoat sohasidagi jadallashtirish siyosati, sohadagi o‘sish sur’atlari, ishchilar sonining ortishi, fabrika va korxonalar sonining yildan yilga ko‘payganligi bilan izohlanib, sanoatlashtirish siyosati mohiyati xolislik va haqqoniylig nuqtayi nazardan o‘rganilmagan. Mustaqillik davrida barcha sohalar tarixi ilmiy jihatdan yangi nazariy metodologiyaga tayangan holda talqin etishga kirishilib, soha tarixi bo‘yicha ilmiy maqolalar, yangi adabiyotlar, dissertatsiya ishlari bajarildi. O‘zbekiston iqtisodiy hayoti, jumladan, sanoat sohasi tarixiga bag‘ishlangan ishlar salmog‘i ko‘p bo‘lsada, ammo ularda ayrim kamchiliklar ham mavjud bo‘ldi. Shuningdek, tadqiqotlarning birortasida 1920-1940-yillarda O‘zbekiston sanoat sohasi tarixi maxsus tadqiqot obyekti sifatida tanlab olinmagan. Sovet davri tadqiqotlarida besh yillik rejalar davrida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha tarixchilar mamlakatning sanoatlashuviga baho berilgan. Biroq, tadqiqotda O‘zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish davrini ikki davrga ajratgan xolda, tahlil va tadqiq etilgan.

O‘zbekiston SSRda oziq-ovqat sanoatini yo‘lga qo‘yish yuzasidan ham ba’zi ishlar amalga oshirildi. Masalan, yog‘, un, vino, konserva ishlab chiqarish ko‘paytirilib, aholi ehtiyojini qondirish borasida tadbirlar olib borildi.

1921 – 1922-yillarda To‘rtko‘l yog‘ zavodi qayta tiklanib 2448 pud yog‘ ishlab chiqardi. 1924-yil O‘zbekistonda 6 ta yog‘ zavodi ishlab turdi. 1923 – 1924-yil bu zavodda 336 ming pud yog‘ ishlab chiqargan bo‘lsa, 1924 – 1925-yili 1060 ming pud yog‘ ishlab chiqardi. 1924 – 1925 xo‘jalik yiliغا 688 ming pud yog‘ Bosh paxta komiteti orqali Moskvaga jo‘natildi. 1923-yil o‘rtalarida paxta yog‘i tannarxining yuqoriligi tufayli 1 pud yog‘ narxi 12 rublga chiqdi va paxta yog‘i savdosi kamayadi. Shu yili Rossiyadan kungaboqar yog‘i ko‘plab olib kelinib, 1 pudi 6 rublga sotildi [2, 302].

O‘zbekistonda zavod tipidagi un tortish korxonalari XIX asrning oxirlarida paydo bo‘lgan. Bu davrda O‘zbekiston hududida kepakli jaydori un tortiladigan, unumdorligi bir sutkada bir necha sentner bo‘lgan 5 mingdan ortiq tegirmon bo‘lgan. 1877-yil rus savdogarlari Toshkentda bir sutkada 10 tonna navli un tortilgan tegirmon qurib ishga tushiradi 1883-yil Toshkentda birinchi zavod tipidagi korxona ish boshladi.

Turkiston respublikasi un sanoati tresti 1920-yili tashkil etildi va shu vaqtinun tarkibida 21 ta un korxonasi va 6 ta guruch zavodi kirdi. Bu davrda O'rta Osiyoga Rossiyadan kelayotgan donning kamayishi munosabati bilan un sanoati sohasida ham orqaga ketish kuzatilib, tegirmonlarning eskiligi, texnik jihozlarining foydalanish uchun yaroqsiz ahvolga tushib qolganligi, shuningdek, suv tanqisligi kabi omillar ham bu soha ishining rivojiga to'sqinlik qildi. 1924-yil 1 pud donni tegirmonda yanchish 35 tiyinga to'g'ri keldi. 1924-1925-yilda 2,466 ming pud un sotildi. "Sredazxleb" aksionerlik jamiyati ixtiyorida 12 ta tegirmon bo'lib, ularda 3,8 mln. pud don yanchildi. Mazkur tegirmonlarni qayta texnik jihozlash uchun 160 ming rubl ajratiladi.

O'zbekistonda vino ishlab chiqarish yuzasidan ham muayyan ishlar amalgalashirildi. "Turkvino" Toshkent bo'limiga asosan 2 ta korxona, ya'ni I.I. Pervushkina zavodi hamda "Degress" nomli vinochilik punkti qarashli edi. I.I. Pervushkina zavodi spirt ishlab chiqarish uchun xom ashyni asosan Qovunchi shakar zavodidan oldi. Zavod bir oyda 1613 chelak birinchi navli spirt tayyorladi. "Degress" vinochilik punkti 10 pud olmadan 300 chelak "Alma-Buza" nomli xushbo'y ichimlik ishlab chiqardi. Turkiston vinosi quvvati 20o gacha bordi. Urush yillari vino ishlab chiqarish bir muncha orqaga ketdi.

1925-yil uzum hosili yomon bo'lganligi uchun vino sanoati ishida ham orqaga ketish kuzatildi. Mavsum oxiri sovuq bo'lganligi uchun hosilning ko'p qismi terib olinmay turib sovuq urdi. Tayyorlanishi lozim bo'lgan 607 ming pud uzumdan, faqat 178 ming pudi tayyorlanib, reja 21 foizga bajarildi. Bir pud uzumning narxi davlat tomonidan 1 rubl 25 kop. qilib belgilandi. Ammo bu baho juda past bo'lganligi uchun dehqonlar hosilni punktlarga deyarli topshirmadilar. "O'zbekvino" tashkiloti Kavkazdan vino mahsulotini sotib olishga majbur bo'ldi. Vino ishlab chiqarish zavodlari non va mayizdan spirt olishni ko'paytirdi. Natijada aroq ishlab chiqarish ko'paydi. Vinoning narxi oshib bordi. 1924-1925-yilda bir chelak vinoning narxi 4 rubl 92 kopeyk bo'lsa, 1925-1926-yili 6 rubl 31 kopeyk bo'ldi. 1 gradus spirt narxi 24,4 kopeykdan 33,2 kopeykaga ko'tarildi [3, 65].

O'zbekistonda vino ishlab chiqarish sanoati "Turkvino" tresti tomonidan boshqarildi. O'rta Osiyoda bir yilda 535 ming chelak vino ishlab chiqarilgan bo'lsa, shuning 385 ming chelagi O'zbekiston hissasiga to'g'ri keldi. 1924 – 1925-yil O'zbekistonda 1298 ming rublik vino ishlab chiqarildi.

O'rta Osiyoda bu davrda shakar ishlab chiqarish bilan faqat bitta, ya'ni Qovunchi shakar zavodi shug'ullandi. Bu zavod Toshkent viloyatida hozirgi Yangiyo'l shahrida iste'fodagi ofitser V.M. Ivanov tomonidan 1904-yili O'rta Osiyo temir yo'lining Kaufman stansiyasi yaqinida bunyod etildi. Zavodning o'zida

gidrostansiya bo‘lib yiliga 300 pud shakar ishlab chiqardi. Bu korxona 1911-yil moliyaviy tanglik tufayli yopildi.

Qovunchi shakar zavodini 1922-yili qaytadan ochishga harakat qilindi. Ammo shakar ishlab chiqarish uchun yetarli xom ashyo bo‘lmaqanligi tufayli zavod yana o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Shakar O‘zbekistoniga Ukrainadan keltirila boshlandi va har yili 3 million pud shakar chetdan keltirildi. Holbuki, shakar uchun asosiy xom ashyolardan biri hisoblangan lavlagi yetishtirish O‘rta Osiyo iqlim sharoitida ancha qulay edi. Masalan, Toshkent viloyati lavlagi yetishtiruvchi asosiy hududlardan biri hisoblangan. Ukraina lavlagisida shakar miqdori 16,4 foiz bo‘lsa, O‘zbekistonda bu 19 – 23 foizni tashkil qildi.

1922-yil zavodda birinchi navli shakardan 43 550 pud, ikkinchi navli shakardan 1921 pud ishlab chiqardi. Bu davrda Qovunchi rayonida 488 desyatina, Eski Toshkentda 150, Chinozda 145, Kelesda 100 desyatina, jami 883 desyatina yerga lavlagi ekildi. Paxtaning narxi lavlagiga nisbatan yuqori bo‘lganligi tufayli dehqonlar, asosan, paxta maydonlarini ko‘paytirishga e’tibor berdi [4, 25].

O‘zbekistondagi yagona shakar zavodi ham turli bahonalar bilan yopildi. Bu ittifоqdagi respublikalarni bir-biriga bog‘liqligini kuchaytirish yuzasidan ko‘rilgan tadbirlardan biri edi.

Bu davrda oziq-ovqat sanoati mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojning o‘sishi, bevosita bu sohada ko‘proq sanoat korxonalarini tashkil etilishiga turki bo‘ldi. Mahalliy aholining ko‘pchiligining fabrikada tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish imkoniyati cheklangan edi. Bu turdagи oziq-ovqat mahsulotlarini asosan shahar aholisi iste’mol qilib, qishloq aholisi esa o‘zлari tayyorlagan mahsulotlarni iste’mol qilganlar.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari mahalliy xom ashyolar asosida mahsulot ishlab chiqardilar.

1936-yil Sovet davlatidagi eng yiriklardan biri bo‘lgan Kattaqo‘rg‘on yog‘-ekstraksiya zavodi ishga tushirildi.

Urushgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda sabzavot konserva sanoati korxonalari, asosan, Toshkent va Farg‘она viloyatlarida joylashdi. 1938-yilda O‘zbekistonda 5,87 mln dona banka va 3,8 ming tonna quruq meva, 1940 esa 26,4 mln dona banka meva-sabzavot va 12,1 ming tonna quruq meva ishlab chiqarildi. Bu sohaga tegishli raqamlar tahlil etilganda, viloyatlar o‘rtasidagi tafovut namoyon bo‘ladi. Masalan, 1940-yil Toshkent viloyatda 23 ming dona banka konserva ishlab chiqarilgan bo‘lsa, bu Qashqadaryo viloyatida 59 ming banka, Qaroqalpog‘istonda 20 ming, Xorazmda 15 ming banka edi. Buxoro, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham bu soha yo‘lga qo‘yiladi.

Sovet davlat baliqchilik sanoatiga muayyan e'tibor qaratdi. Mazkur sanoat tarmog'i asosan Qoraqalog'iston ASSR yo'lga qo'yilgan bo'lib, 1928-yil 123,0 ming rubl, 1937-yil 2,1 mln rubl ajratildi.

1934-yil Mo'ynoq baliq zavodiga 1436 nafar ishchi faoliyat olib bordi. Bu zavod 1933-yil 565 ming rublik, 1940-yil 1826 ming rublik mahsulot ishlab chiqardi. Mo'ynoq go'sht-baliq konserva zavodi qurilishi 1935-yil boshlandi. Sobiq Ittifoqdagi eng yirik baliq urug'i tozalaydigan zavod Nukusda 1934-yil ishga tushirildi [5, 107].

O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ham oziq-ovqat sanoatini yo'lga qo'yish yuzasidan tadbirlar belgilanib, bir qator kichik hajmdagi korxonalar ishga tushirildi.

1937-yilda Termizda yog', 1938-yilda esa non zavodi, 1939-yilda Denovda vino zavdolari ishga tushirildi.

Oziq-ovqat sanoatida asosan o'simlik yog'inining ulushi yuqori bo'lib, konditir, makaron va pivo mahsulotlarining ulushi kamligi bilan izohlanadi. 1940-yilda ham go'sht va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmida o'sish kuzatilmadi .

1940-yil O'zbekiston bo'yicha ishlab chiqarilgan go'sht va go'sht mahsulotlarining Buxoro viloyatiga 1591 tonna, Xorazmga 800 tonna, Qashqadaryo viloyatiga 303 tonna to'g'ri keldi.

Shu yili O'zbekiston ishlab chiqarilgan o'simlik yog'inining 45878 tonnasi Farg'ona, 43562 tonnasi Andijon, 21081 tonnasi Samarqand hisobiga to'g'ri keldi. O'simlik yog'i Surxondaryoda 15 tonna, Qoraqalpog'iston ASSR da 27 tonnani tashkil etdi [6, 114].

1933-1937-yillarda Qoraqalpog'iston ASSR sanoatini rivojlantirish uchun 22,7 mln. rubl, 1938-1940-yillarda 20,3 mln rubl ajratildi. Ajratilgan mablag'ning asosiy qismi Qo'ng'iroq paxta tozalash zavodi hamda Mo'ynoq baliq-go'sht konserva kombinatiga sarflandi.

1933-yil Qoraqalpog'istonda 5 ta yirik sanoat korxonasi bo'lsa, 1940-yilga kelib ular soni 89 ta bo'ladi [7, 12].

Sobiq SSSR tomonidan amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati natijasi sifatida ayrim tarixchilar, xususan, sovet davri tadqiqotlarida besh yillik rejalar sobiq SSSRning sanoatlashtirish siyosatidagi muhim bosqichlari sifatida e'tirof etiladi. Urushgacha 3 ta besh yillik rejalar ya'ni, birinchi besh yillik (1928-1932-yy), ikkinchi besh yillik (1933-1937-yy), uchinchi besh yillik (1938-1942-yy) rejalar qabul qilingan. Mazkur besh yillik rejalar davrida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tarixchilar mamlakatning sanoatlashuviga baho berishlari, industriya sohasida ma'lum natijalarga erishilganligini e'tirof etishlari tabiiy. Biroq, biz tomonimizdan O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish davrini ikki davrga ajratgan xolda, tahlil va tadqiq etish taklif etiladi:

**Birinchi davr. 1925-1932-yillar.** Bu davr sanoatlashtirishning sun'iy ravishda jadallashtirilishi va uning oqibatlari sifatida O'zbekiston SSRda sanoat qurilishidagi zarur nisbatlar buzilishi, ma'muriy buyruqbozlik, noaniq topshiriqlar, mutaxassis kadrlar tanqisligi, sanoat sohasida oliv o'quv yurtlari va ishchilarning malaka oshirish tizimini yaratilmaganligi, amalda bajarib bo'lmaydigan vazifalarning belgilanishi bilan izohlanadi.

**Ikkinchchi davr. 1933 – 1941-yillar.** Mazkur davr O'zbekistonda amalda yirik sanoat korxonalarining tashkil etilishi, mashinasozlik, energetika, kimyo sanoati, ipakchilik, uzumchilik va umuman qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash korxonalarining barpo etilishi, og'ir sanoatning rivojlanishi bilan izohlanadi.

Ayrim xorijlik tadqiqotchilar tomonidan SSSRda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatiga ijobjiy baho berilib, sanoat ishlab chiqarishning mutlaq hajmlari bo'yicha XX asrning 30-yillari oxirida SSSR dunyoda AQShdan keyin 2-o'rinni egallaganligi ta'kidlanadi. SSSRda sanoat texnologiyasi yaratilishi mumkinligi, shuningdek, G'arbdan farqli o'laroq SSSRda bozor iqtisodiyoti va fuqarolik jamiyatni yo'q edi.

V.Lelchuk "SSSRni sanoatlashtirish: tarixi, tajribasi, muammolari" nomli risolasida SSSRdag'i sanoatlashtirish jarayoniga yuqori baho berib, quyidagi fikrlarni bildiradi:

***birinchidan***, SSSRda sanoat o'zgarishi ikkinchi darajali xarakterga ega edi. Rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha kechroq amalga oshirilganligi sababli, yangi qurilgan va rekonstruksiya qilingan korxonalarda chetdan eksport qilinadigan asbob - uskunalar va texnologiyalar, shuningdek, mehnatni tashkil etish usullari qo'llanilgan.

***ikkinchidan***, ishlab chiqarishning sanoat turi dastlab iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida shakllanishi mumkin. Sanoatlashtirishda og'ir va mudofaa sanoatining ustuvor rivojlanishiga e'tibor qaratildi.

***uchinchidan***, sanoat texnologiyasi yollanma mehnatdan ortiqcha qiymat olish uchun yaratilgan va kapitalistik ekspluatatsiya vositasi bo'lib xizmat qilgan. Stalinistik model, asosan, sotsialistik bayroq ostida dastlabki sanoat kapitalizmini qayta ishlab chiqardi.

***to'rtinchidan***, 70-yillarga qadar sovet jamiyatining muhim xususiyati uning keljakka intilishi, qo'rquv va dahshatga dosh berishga tayyorligi, o'z farzandlari va umuman keljak avlodlari uchun porloq keljak uchun qat'iy intizom va g'ayriinsoniy texnologiyalarga bo'y sunish edi".

Xullas, O'zbekistonda urushdan oldingi yillarda ham sanoat sohasini jadallashtirish tendensiyasi davom ettirilib, respublika iqtisodiyotining sobiq Ittifoqning asosiy paxta bazasi sifatidagi ixtisoslashuvi yanada avj oldirildi. Bu davrda

O‘zbekiston xalq xo‘jaligida sanoat ishlab chiqarish salmog‘i yildan yilga oshib borgan bo‘lsada, ammo eng asosiy sanoat korxonalari ittifoq tasarrufida bo‘lib, u turdag'i korxonalarining salmog‘i barcha sanoat korxonalarining 90 foizini tashkil qildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2021. – B. 134.
2. Baymanovna, A. R., & Isxoq ogli, Q. M. (2024). О ‘ZBEKISTON BILAN HINDISTON O ‘RTASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(3), 31-34.
3. Jo‘raqulov O., Ergasheva J. Qashqadaryo sanoati tarixi. – Qarshi: Nasaf, 1996; – 65 bet
4. Esanova, N. P. (2024). MAIN FACTORS OF TEXTILE INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (1991-2021 Years). *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(9), 5-13.
5. BAYMANOVNA, A. R., & Eshqobil ogli, M. B. (2024). О ‘ZBEKISTON VA HINDISTON MAMLAKAT XALQLARINING SPORT SOHASIDAGI MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(3), 27-30.
6. Sharipov A. O‘zbekistonda oziq-ovqat sanoatining rivojlanishida. – T., “O‘zbekiston”, 1973. – 290 str.
7. Esanova, N. (2024). QASHQADARYO SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK MEXANIZMINING YARATILISHI. *Interpretation and researches*.
8. Baymanovna, A. R., & Eshqobil ogli, M. B. (2024). ESTABLISHMENT OF CULTURAL RELATIONS BETWEEN STATES AND ITS HISTORICAL BACKGROUND. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 40(5), 27-30.
9. Pulatovna, E. N. (2024). UZBEKISTAN’S PLACE IN INTERSTATE INDUSTRY AND TRADE EXHIBITIONS (1991-2021 YEARS). *International journal of artificial intelligence*, 4(07), 342-343.